3) №8796/11. Nasta'liq xatida yozilgan. Hijriy 1238 (milodiy 1822-1823) yili ko'chirilgani 198 a varaq qayd etilgan. Ushbu qo'lyozmada Sayyoralar va Oy harakatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Hajmi 17 varaq (257 b – 273a );

4) №11599/3. Taxminan XIX asrga nasta'liq xatida ko'chirilgan. Unda Mahmud al-Chag'miniyning yuqorida nomlari zikr etilgan ikkita kitobdan iborat bo'lgan asari haqida qisqacha ma'lumot keltirilgan. Hajmi 18 varaq (121 b – 138 b).

Uning «Al-mulaxxas fi-l-hay'a» nomli bitta qo'lyozmasi 1967 yilda Urganch shahrida topildi. Mazkur qo'lyozma Ulug'bek ilmiy maktabining yirik vakili Ali Qushchining (vafoti 879/1474 yil) shogirdi Hodi Muhammad ibn Ali ibn Ibrohim Astrobody tomonidan hijriy 949 (milodiy 1542) yili ko'chirilgan. U «Falakiyotga oid risola» bilan bir muqovada tikilgan. «Al-

mulaxxas» ning ushbu qo'lyozmasi ancha eski bo'lib, nasx bilan yozilgan. Bu risola haqida X.Siddiqov Mahmud Chag'miniy ilmiy merosiga bag'ishlangan maqolasida ma'lumot beradi va dunyoning turli mamlakatlari kutubxonalarida (Berlin, №5673; Gota, №1387; Leyden, №1083; Jazoir, №1453; Oksford, №2905; Britaniya muzeyi, №1343; Parij, №2330, №2502; Qohira, №224, №225), shuningdek, Sankt-Peterburgdagi Saltikov-SHchedrin, Qozon universiteti, Ozarbayjon FA Sharq qo'lyozmalari fondi, Abu Rayhon Beruniy nomli O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida «Al-Mulaxxas»ning qo'lyozmalari saqlanayotganini ham ta'kidlab o'tadi [3; 160-195-bb.].

Tadqiqotda tarixiylik, mantiqiylik tamoyillari hamda qiyoslash, analiz va sintez, umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

**Muhokama.** Risolaning qo'lyozmalari haqida yozgan tadqiqotchilar, uning nusxalari ko'pligini ta'kidlash bilan bir qatorda, ular ilmiy izlanishlarga to'la jalb qilinmaganini va asarning tanqidiy matni yaratilmaganini ham qayd etganlar [4; 37-b.]. Qo'lyozmaning eng qadimgi nusxasi hozircha Istanbul shahridagi Lolali kutubxonasida saqlanayotgan 2141/2 raqamli nusxa (ko'chirilgan yili milodiy 1246 yilga to'g'ri keladi) ekanligi tadqiqotlarda ko'rsatilgan.

Mahmud Chag'miniyning «Al-mulaxxas fi-l-hay'a» risolasi o'rganilgan bo'lsa-da, biroq o'zbek tilida bu yo'nalishda qilingan ishlar juda kam. Asarning o'rganilish tarixi xususida so'z yuritganda, avvalo, unga yozilgan sharhlarga va boshqa tillarga qilingan tarjimalarga to'xtalsa to'g'ri bo'ladi, deb o'ylaymiz. Ushbu maqolada Qozizoda Rumiyning Mahmud al-Chag'miniy «Mulaxxas fi-l-hay'a» asariga yozilgan sharhlarni tahlil etamiz.

Chag'miniy falakiyotiga Mirzo Ulug'bek (1394-1449) ilmiy maktabining yirik vakili Qozizoda Rumi (761/1360 – 840/1437) 1412 yilda sharh yozgan. U «Sharh al-mulaxxas fi-l-hay'a» deb ataladi.

Abu Rayhon Beruniy nomli O'zR FA Sharqshunoslik instituti fondida Qozizoda Rumi qalamiga mansub «SHarh al mulaxxas» ning 20 ta qo'lyozmasi qayd etilgan: №№ 8217; 3935/2; 10504/1; 2655/2; 8392; 8607/2; 1162/1; 9592; 7672; 7376/1, 117921; 5607; 9783/2; 3049/1; 8947/3; 9346/2; 5619/1; 2984/4; 1341; 6627 [5; 80-83-bb.]. Ular ichida eng qadimgisi №8217 raqamlisi hijriy 986 (milodiy 1578) yili xattot Muhammad Mo'min ibn Muhammad Qosim xati bilan ko'chirilgan. Biroq, uning ayrim nuqsonlari bor: keyingi davrlarda ko'chirilgan varaqlar uchraydi, dastlabki sakkiz varaq ham keyinroq ko'chirilgan. Ularning orasida № 3049/I (1229/1813-1814 yili ko'chirilgan, chizmalari aniq chizilgan) va 2655/II (1070/1659 yili ko'chirilgan, nasx-suls aralash xat bilan) nisbatan to'laligi va sifatligi bilan ajralib turadi. Ana shu ikkala qo'lyozma asosida «SHarh al-mulaxxas fi-l-hay'a» P.G.Bulgakov tomonidan rus tiliga o'girildi va chop qilindi [5; 216-b.]. «Al-Mulaxxas»ga sharhlar bilan bir qatorda u boshqa tillarga ham tarjima qilingan. Ular haqida qisqa ma'lumot beramiz:

1. Mahmud Chag'miniy «Al-mulaxxas fi-l-hay'a» asarini XV asrda Mirzo Ulug'bekning Samarqand ilmiy maktabida xorazmlik falakiyotchi olim Husayn ibn al-Husayn al-Xorazmiy al-Kubraviy fors tiliga o'girib, unga sharh ham ilova qilgan. Mazkur tarjima, uning qo'lyozmalari va o'rganilishi bilan bog'liq ayrim chalkashliklar [6; 486-b.] borligi haqida O.Bo'rievning «Xorazmshohlar – Temuriylar» risolasida keltirilgan. Unda yozilishicha, hozirda ushbu tarjimaning ikkita qo'lyozmasi mavjud bo'lib, biri Londonda Britaniya muzeyida (№1524) va ikkinchisi Abu Rayhon Beruniy nomli O'zRFA Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda [7; 12-13-bb.]. Keyingi nusxa qisqa, chunki unda asarning faqat ikki bobi bor. Husayn al-Kubraviy

o'z tarjimasini «Nuzhat al-mullak fi hay'ati-l-aflak» («Podshohlarning koinot tuzilishidan huzur olishi») deb ataganini asarning «Muqaddima»sida qayd etgan [8; 124b-150b-bb.].

2. Ushbu risolaning fors tiliga yana bir tarjimasi XVI asrga tegishli va uning qo'lyozmasi hozirgi vaqtda Oksford universiteti kutubxonasida (№1524) saqlanadi [9; 56-57-bb.].

3. Risola XIX asrda dastlab G.Radlof va A.Xoxgeym tomonidan nemis tiliga o'girildi [10; 213-275-bb.]. Undan rus tiliga tarjima qilinib chop etilgan lavhalar ham bor [11; 67-69-bb.], lekin asar to'la o'rganilmagan.

**Natijalar.** Ushbu risolaning fanda o'rganilishi Hoji Xalifning «Kashf az-zunun» asarida qayd etilgan ma'lumotlardan boshlanadi. Uning ismini Mahmud ibn Muhammad al-CHag'miniy al-Xorazmiy shaklida keltirilib, «Al-mulaxxas fi-l-hay'at al-basita» («Boshlang'ich falakiyotga oid qisqacha risola»)ning muallifi deb yozilgan. Hoji Xalifa uning muqaddima va ikki qismdan iboratligini ta'kidlaydi, so'ngra sharhlari haqida yozadi. Qozizoda Rumiya uni Mirzo Ulug'bek uchun sharhlaganini, Fazlulloh al-Ubaydiy, Kamoliddin Turkmaniy, Muhammad ibn Ahmad (hij. 715 yili sharh yozgan), Sayid SHarif Ali al-Jurjoniya (vaf.haj.816), al-Mavlo Sinonuddin YUsuf, Muhammad ibn Husayn ibn Rashid al-Mashhadiy al-Xorazmiy, al-Mavlono Abdulvahid, Badriddin as-Sobitiy, Abdulvohid ibn Muhammad, Muhammad ibn Muhammad ibn Abu Tolib (Hammom at-Tabib nomi bilan mashhur bo'lgan) kabi olimlar ham unga sharh yozganlarini ta'kidlaydi [12; 785-b; 1003-b.].

1405 yil 18 fevralda yuz bergan sohibqiron Amir Temur (1336-1405) vafotidan so'ng Movarounnahrda hukm surgan notinchlik Qozizoda Rumiya Mirzo Ulug'bek bilan birgalikda Xirotda ketishga majbur qildi. Bu erda u bir necha yil davomida bo'lajak buyuk olimga falakiyot, riyoziyot fanlaridan saboq berdi va ularga mehr uyg'otdi. Ulug'bek keyinchalik o'z «Zij»ida Qozizodani minnatdorchilik bilan «ustozim» deb tilga oladi.

Ulug'bek Jamshid Koshiydan «Ziji Elxoniy», Marog'adagi kuzatishlar haqida ko'p eshitib, o'zi rasadxona barpo etish va yangidan falakiyot kuzatishlarini boshlashga tashabbus ko'rsatdi. Rasadxona qurilishini Qozizoda bilan birga Jamshid Koshiy boshqardi. Qurilish tugatilib, kuzatishlar boshlanishi bilanoq Koshiy vafot etdi. Bundan so'ng ishlarga ilmiy rahbarlik Qozizodaning zimmasiga yuklandi. U ham kuzatishlar oxiriga etkazilmasdan vafot etdi. Endi bu ishga Ali Qushchi jalb etildi. U katta jonbozlik ko'rsatib, ustozini Ulug'bek bilan ishni nihoyasiga etkazdi.

Qozizoda Rumiya bilan Jamshid Koshiylar XV asrning birinchi yarmida SHarq va G'arbning eng buyuk olimlaridan edilar. Qozizoda Samarqandda ko'p shogirdlar etishtirdi. Bularning birinchisi va eng buyugi Mirzo Ulug'bekdir. Ikkinchisi Fathulloh SHervoniya bo'lib, u 1449 yili Ulug'bek o'ldirilishi bilan darhol Kichik Osiyoga ketdi va Kastamonu shahrida mudarrislik bilan shug'ullandi.

Qozizoda Rumiya qalamiga mansub «SHarhi mulaxxas fi-l-xay'a» («Falakiyot haqida qisqacha risolaning sharhi») Mahmud ibn Muxammad ibn Umar al-Xorazmiy al-CHag'miniyning (XIII asr) «Mulaxxas fi-l-hay'a» nomli asariga arab tilida yozilgan sharhidan iborat. U 1412 yilda Ulug'bek uchun Samarqandda yozilgan. Risolaning 150 dan ortiq qo'lyozma nusxalari dunyodagi turli kutubxonalarda saqlanadi.

Samarqanddagi falakiyot maktabi faoliyatida Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Mas'udiy», Qozizoda Rumiya «SHarh al-mulaxxas fi-l-hay'a» (Mahmud CHag'miniyning «Qisqacha falakiyot» risolasiga sharhi) [5; 478-b.], Husayn al-Kubraviyning falakiyotini arab tilidan fors tiliga sharh bilan o'girilgan «Nuzhat al-mulloq fi hay'ati-l-aflak» («Podshohlarning



koinot tuzilishidan huzur qilishi») [13; 10-b.] va Mir Sayid Sharif Jurjoniyning ham CHag‘miniy «Mulaxxas fi-l-hay’a» [14; 128-b.] risolasiga yozgan sharhi asosiy qo‘llanma vazifasini o‘tagan.

Mahmud Chag‘miniyning ilmiy merosi, jumladan, «Al-mulaxxas fi-l-hay’a» risolasi, unga yozilgan sharhlar xususida SHarqda dastlab Hoji Xalifaning «Kashf az-zunun» asarida qayd etilgan bo‘lsa-da, biroq hozirgi davr fani nuqtai nazaridan bu sohadagi dastlabki tadqiqotlar Evropa olimlari qalamiga mansub. Bu haqda G‘arbiy Evropa tillarida - G.Radlof, A.Xoxgeym (1893) [10], K.Brokkelman (1898) [15; 16], G.Zuter (1900) [17], K.Nallino (1911) [18], G.Sarton (1927-1948) [19], X.Reno (1932) [20]; rus tilida - D.G.Voronovskiy (1965), X.Siddiqov (1972), P.G.Bulgakov (1972;1979;1993), G.P.Matvievskaya va B.A.Rozenfeld (1983); o‘zbek tilida - X.Siddiqov (1981), O.Bo‘riev (1999), G.Masharipova (2019, 2021) tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin [21; 96-99-b.; 22; 210-b.].

Anushteginiy-Xorazmshohlar davri tarixidan ma‘lumki, Muhammad Xorazmshoh saltanatida Xorazmda iqtisodiyot bilan bir qatorda, ilm fanning turli sohalari, shu jumladan, aniq fanlar ham rivojlangan. O‘quv maskanlarida riyoziyot, falakiyot, jo‘g‘rofiya, tibbiyot kabi yo‘nalishlarda dars o‘tilgan. Shu sababdan o‘quv qo‘llanmalariga ehtiyoj katta bo‘lgan. Aniq fanlar bo‘yicha yutuqlar xo‘jalik sohalarida ham amaliy ahamiyat kasb etgan.

Chag‘miniy «Al-mulaxxas fil hay’a» («Qisqacha falakiyot») risolasida shu fan sohasida musulmon Sharq mamlakatlari va qadimgi yunon ilmidan keng foydalangan. U Quyosh, Oy va sayyoralar haqida mavjud eng muhim tushunchalarni tahlil qilib, ularni oddiy, tushunarli tilda yozgan.

Ushbu risola ilmiy-ommabop uslubda yozilgani uchun keyingi davrlarda unga sharhlar yozilishiga va boshqa tillarga tarjima qilinishiga sabab bo‘ldi. Bu o‘z navbatida undan ko‘plab nusxalar ko‘chirilishi va jahon SHarq qo‘lyozmalari xazinalariga tarqalishi, ilmiy tadqiqotlar olib borilishi uchun keng imkoniyat yaratdi, G‘arb tillari, rus va o‘zbek tillarida qator tadqiqotlar chop etildi. Tadqiqotlar davomida Chag‘miniy va uning ilmiy merosi haqida aniq ma‘lumotlar shakllana bordi, «Al-mulaxxas fi-l-hay’a»ning qo‘lyozmalari haqida kataloglarda, bio-bibliografik nashrlarda va turli ilmiy tadqiqotlarda ma‘lumotlar berildi.

Umuman, Mahmud Chag‘miniy «Al-mulaxxas fil hay’a» risolasi misolida Xorazm Ma‘mun akademiyasi davridagi ilmiy salohiyatning Anushteginiy-Xorazmshohlar davrida davom etgani ko‘rinadi.

Chag‘miniy e‘tiborini fanlar orasida ko‘proq jalb etgan falakiyot edi. Unga bu fanga qiziqishi yoshligidanoq paydo bo‘lgan.

Olimning ilmiy faoliyati, ijodining gullab-yashnashida o‘tmishdoshlarining turli fan sohalarida qoldirgan ilmiy merosi asos bo‘lgan. Ular o‘z asarlari bilan falakiyotni va riyoziyotni boyitganlar.

Chag‘miniyning buyuk olim bo‘lib etishishida o‘tmishdoshlarining roli katta bo‘ldi. O‘sha davrda o‘qiladigan riyoziyot, falakiyot, tibbiyot kabi bilimlar sohasida u tadqiqotlar olib bordi va hal qilinmagan bir qancha masalalar yuzasidan mufassal ma‘lumotlar berdi.

Uning falakiyotga oid risolasi “Mulaxxas fi-l-hay’a” (“Falakiyot haqida qisqacha kitob”) nomi bilan mashhurdir. Risolani yozishdan oldin CHag‘miniy o‘tmishdoshlari, zamondoshlarining va Ptolemey asarlarining tarjimalarini tanqidiy o‘rganib chiqqan. SHuningdek, u uzoq vaqt davomida Quyosh, Oy va boshqa sayyoralar ustida kuzatishlar olib borgan. Buni biz astrolyabiyani ishlatish haqidagi fikrlaridan bilamiz. Alloma o‘zining bu sohadagi faoliyati haqida shunday yozadi: “Risola mazmuni shukim, menga tabiat, jiddiy orzu va fikrlar, turli masalalar ustida bosh qotirishni

o'rgatdi". Ikkinchi tomondan, o'lchash natijalarida topilgan son qiymatlari haqidagi ma'lumotlarining tayyorinigina oladi. Chag'miniy oshiqcha hisoblashdan chekingan. U o'sha vaqtdagi riyoziyot fanlari erishgan o'lchov natijalari, usullari o'quvchilarga tanish bo'lganligi tufayli risola ko'p so'zlik bo'lmasin deb xavfsiragan bo'lishi mumkin.

Uning risolani yozishdan maqsadi o'zidan keyingi avlodga falakiyotdan qo'llanma qoldirish edi, chunki uning tuzilishidan shunday xulosa chiqarsa bo'ladiki. SHu sabablarga ko'ra, risola darslik sifatida o'z o'rnini topgan. Bu haqida, ayniqsa, risolaga mashhur riyoziyotchi va falakiyotchi Ali ibn Muhammad Said SHarif Jurjoniy (1339-1412) ning sharh yozganini eslatish kifoya. Risolaning yuqori baholanib, keng tarqalganligini, unga har doim "Mulaxxas" ("qisqacha") risola deb nom berilishidan bilsa bo'ladi.

Muallif falakiyot ma'lumotlarini ustalik bilan guruhlariga bo'lgan, o'tkir va aniq ifodalar bilan tushuntirgan.

SHuni alohida ta'kidlash joizki, Chag'miniy o'z risolasidan asosli ravishda har bir munajjimlik, fantastik tushunchalarni chiqarib tashladi, chunki u o'z davridagilarni yaxshi bilgan.

Olim so'zboshisida shunday yozadi:

Men risolamda o'z fikrlarimni iloji boricha aniq va qisqa bayon qilishga harakat qilib, risolaning nomi maqsadni bildirsin deb, unga "Falakiyot haqida qisqacha risola" deb nom qo'ydim, deb yozadi.

Qo'lyozma kirish va ikki qismdan iborat. Kirish qismida Chag'miniy osmon jismlari tasnifining umumiy holatini bayon qiladi.

Birinchi qismda sferalar va ularga bog'liq bo'lganlar haqida ma'lumot beradi. U besh bobdan iborat.

I bob. Sferalarning ko'rinishlari haqida.

Yoritgichlarning osmondagi ko'rinma o'rinlarini aniqlashda osmon sferasi tushunchasidan foydalanish ancha qulay. Radiusi ixtiyoriy bo'lgan faraziy shar sirtiga osmon yoritgichlari vaziyatlarining proeksiyalari tushirilsa, uni osmon sferasi deb qabul qilish mumkin. Agar yoritgichlarning biror vaqt mobaynida kuzatib tursak, ularning vaziyati Yerdagi turli narsalarga nisbatan o'zgarganligini sezamiz. Quyosh, Oy va ba'zi yulduzlar sharqdan chiqib g'arb tomonga botadilar. Ba'zi yoritgichlar osmonning shimol tomonida joylashgan qutb yulduzi atrofida aylanganday bo'lib ko'rinadi. Aylanish jarayonida sferaning barcha yoritgichlari birgalikda aylanayotganini ko'rsatadi.

Osmon sferasining bu tarzda harakati doimiy takrorlanib turganligi sababli, unga sutkalik harakat deyiladi. Osmonning bu xil harakati faqat ko'rinma hodisadir. Aslida osmon emas, Yer o'z o'qi atrofida teskari yo'nalishda, ya'ni g'arbdan sharqqa tomon bir sutkada bir marta aylanib chiqadi. Uning bunday harakatini biz sezmaymiz, chunki Yer sirtidagi barcha predmetlar biz bilan bir yo'nalishda, bir xil tezlik bilan aylanadi.

Shuningdek, Mahmud al-Chag'miniy ushbu bobda Yer atrofini o'rab turgan suvning aylanishini ham sferik formada ekanligini bayon etadi.

II bob. Sferalarning harakati haqida.

Agar osmon gumbazini bir tekis aylanuvchi sfera deb qabul qilsak, uning aylanishining xayoliy o'qi kuzatuvchi ko'zi (sfera) va Qutb yulduzi yaqinidan o'tadi. Uni olam o'qi deyiladi. Olam o'qi osmon sferasini ikki diametral qarama-qarshi nuqtada kesadi. Mahmud al-CHag'miniy asarining ushbu bobi sferalar ekliptika doirasidagi sayyoralarning harakati haqida to'xtaladi. Ekssentrik markaz bo'yicha Quyoshning sharqdan g'arbgacha bir kunlik harakati –  $0^{\circ}59'8''20'''$  deb

hisoblangan. SHuningdek, ushbu bobda Saturn, Yupiter, Mars, Venera, Merkuriy va Oyning harakatlari ham aniq hisoblangan. Shu asosda Chag'miniy sayyoralarning kunlik epitsiklik harakatini ham hisoblagan. Bu hisob Qozi-Zoda Rumiy risolasida ham keltirilgan.

III bob. Aylanalar haqida.

Mahmud al-Chag'miniy "katta va kichik aylanalar" haqida ma'lumot beradi. Katta aylanalar qatoriga ekliptikani ham qo'shadi. Shuningdek, zodiaklar belgilarini ham sanab o'tgan.

Erning hamma joyida og'irlik kuchi vertikal chiziq bo'ylab uning markazi tomon yo'nalgan. Olam o'qiga tik bo'lgan va osmon sferasining markazidan o'tadigan tekislik osmon ekvatori tekisligi deyiladi. U osmon sferasi bilan kesishib osmon ekvatori aylanasini hosil qiladi. Osmon sferasini ikkita yarim sferaga – shimoliy va janubiyga ajratadi. Markazi sfera markazida bo'lgan aylana katta aylana deb ataladi.

Qutb va zenitdan o'tkazilgan aylana – osmon meridiani deyiladi. Kuzatuvchi turgan joyida zenitdan va Qutb yulduzidan katta aylana o'tkazsa, bu aylana shu joy uchun taxminan osmon meridiani bo'ladi.

IV bob. Turli yo'ylar haqida.

Mahmud al-Chag'miniy "yoy" va "qo'shimcha yo'ylar" tushunchalariga ta'rif beradi.

V bob. Quyosh, Oy va sayyoralar harakati haqida.

Birinchi qismda sayyoralar harakati natijasida ularda nimalar sodir bo'lishi va yulduzlar harakatiga qo'shilishi haqida fikr yuritiladi.

Quyosh har kuni sharqdan chiqib g'arbga botadi. Bu uning sutkalik ko'rinma harakati bo'lib, Yerning o'z o'qi atrofida g'arbdan sharqqa tomon aylanganidan vujudga keladi. Yer shari sutkalik aylanma harakatidan tashqari yillik harakatga ega. U Quyosh atrofini bir yilda bir marta to'la aylanib chiqadi. Ma'lumki, Quyoshning tush paytida gorizontdan balandligi, ya'ni uning yuqori kulminatsiya paytidagi balandligi yil davomida o'zgarib turadi. Osmon ekvatorini  $23^{\circ}27'$  burchak ostida kesib o'tuvchi katta aylana Quyoshning yulduzlar osmonidagi yillik ko'rinma yo'li bo'lib, uni ekliptika deyiladi. Ekliptika bo'ylab joylashgan 12 ta yulduz turkumidan iborat kamarga Zodiak deyiladi. Undagi har bir yulduz turkumida Quyosh taxminan bir oycha bo'lib, 12 oyda bu 12 yulduz turkumini ma'lum tartibda bosib o'tadi.

Quyoshning yillik ko'rinma harakati Yerning Quyosh atrofidagi yillik harakati tufayli vujudga keladi. Quyosh ekliptika bo'ylab g'arbdan sharqqa tomon harakatlanadi. Shuningdek, Mahmud al-Chag'miniy ushbu bobda Oy fazoda Yer atrofida ekliptik orbita bo'ylab aylanib yurishini, u Erga o'xshash sharsimon shakldagi jismdir, deb yozgan.

Yerdan turib Oyga qaraganimizda uning yuzida hamma vaqt o'zgarimas bir xil dog'larni ko'ramiz va bizga u o'z o'qi atrofida aylanmaganday bo'lib tuyuladi. Oy Erga hamma vaqt bir tomoni bilan qaralganligi uning o'z o'qi atrofida aylanmaganligini emas, balki uning o'z o'qi atrofida aylanish davri Er atrofida aylanish davri (27, 32 sutka)ga tengligini ko'rsatadi.

Sayyoralar harakati.

Quyosh atrofida aylanuvchi bizga ma'lum bo'lgan 9 ta katta sayyora bor: Merkuriy, Venera, Yer, Mars, Yupiter, Saturn, Uran, Neptun, Pluton va ularning yo'ldoshlari (umumiy soni 32ta) 1800 dan ortiq kichik sayyoralar yoki asteroidlar, 500 dan ortiq kometalar va son-sanoqsiz meteor jismlar Quyosh tizimini tashkil etadi [23, 102-b.].

Mahmud al-Chag'miniy asarining beshinchi bobida Quyosh, Oy va sayyoralar harakati, ularning deferent markaziga nisbatan masofasi, apogey va perigeylar haqida ma'lumot keltiradi.

Ikkinchi qism Yer haqida.

U 3 bobga bo'linadi.

I bob. Yerning aholi yashaydigan qismi, ularning kenglik va uzunliklari hamda ularning iqlimlarga bo'linishi.

II bob. Ekvatordagi joylarning va kengliklarning xususiyatlari.

III bob. Maxsus eslatmalar, geodezik falakiyot va ular bilan bog'liq amaliyotlar haqida.

Chag'miniy jismlarning umumiy bo'linishi (klassifikatsiyasi) masalasiga to'xtalib ularni ikki turga: sodda va murakkab jismlarga ajratdi. U soddalariga boshqa turga ajralmaydigan xususiyatga ega bo'lgan jismlarni, boshqa turga ajrala olish xususiyatiga ega bo'lgan jismlarni esa murakkab turkumiga kiritadi.

Sodda jismlarning o'zi ham ikki xil, ya'ni: elementlar (Yer, suv, havo, o't) va efir jismlar - osmon jismlari, sferalar va ulardagi yulduzlar. Agar sodda jism tabiatini, tuzilishini o'zgartirsa, boshqa fanni o'rganuvchi qonunlarining asosida u shar shaklini qabul qiladi. Demak, umumiy elementlar va efir jismlari birgalikda shar shaklidadir.

Haqiqatan ham, Yer yuzidagi notekisliklar o'z shaklini olayotgan vaqtlarda paydo bo'lib, shu orada tog'lar, vodiylar va hozir biz ko'rayotgan notekisliklar paydo bo'lgan. Lekin ular Erning umuman shar shaklida bo'lishiga zarar etkazmaydi, xuddi arpa donalari yopishtirilgan tuxum o'z shaklini o'zgartirmagani kabi.

Suv ham o'z shaklida bo'lib, dumaloqligi to'la emas. Chunki erdagi balandliklar, notesliklar singari suv yuzining notekisligi ham ko'zda tutiladi. Havo ham kurra shakliga ega bo'lib, uning ichkariga qaragan tomoni suv va Yer yuzining shakli tufayli notekisdir. O't ham ichkari, ham tashqari tomondan sfera shaklidadir, ular dumaloqdir.

Suv erda joylashgan bo'lib uni havo, o't, so'ngra Oy, keyin Merkuriy, Venera, Quyosh, bulardan keyin Mars, Yupiter, Saturn, qo'lg'almas yulduzlar va eng oxirida sferalar sferasi o'rab turadi. Bu oxirgi sfera shunday kattaki, u barcha jismlarni o'rab turadi va undan tashqarida hech bir doimiy narsa, hech qanday bo'shliq mavjud emas.

**Xulosa.** Anushteginiy-xorazmshohlar davrida yaratilgan Mahmud al-Chag'miniyning «Mulaxxas fi-l-hay'a» asarida astronomiyadan qisqacha tushunchalar va farazlarni jahon tabiiy-ilmiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasi muhim ahamiyat kasb etadi. Chag'miniyning «Mulaxxas fi-l-hay'a» asari jahon ilmida darslik vazifasini o'tagan hamda ilmiy falsafiy tafakkur asosida shakllantirish va rivojlantirish uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Собрание восточных рукописей Академии Наук РУз. Т.VI. №4244; №4245. Ташкент. 1967, с. 70-71.
2. Собрание восточных рукописей Академии Наук РУз. Точные и естественные науки. Ташкент «Фан», 1998. С.248; С.70-71.
3. Siddiqov X. O'rta Osiyo, YAqin va O'rta SHarq olimlarining ishlarida geometriya (XI-XVI asrlar). Toshkent "Fan", 1981. B.199; 180-195 b.
4. Bo'riev O., Toshev N. Jaloliddin Manguberdi. - T., Fan, 1999, . 37 b.
5. Руми Кази-заде. Комментарий на «Компендий Астрономии» Чагмини. Предисловие, перевод с арабского языка, П.Г.Булгакова. - Ташкент «Фан» 1993.С.216 (+Приложение 16 с.).
6. Матвиевская Г.П., Розенфельд Б.А. Математики и астрономы мусульманского средневековья и их труды (VIII-XVII). Кн. 2. - Москва: Наука, 1983.

7. Bo'riev O. Xorazmshohlar-Temuriylar (ilmiy an'analar davomiyligi). Toshkent «Fan», 1999. B.20. 9-16-betlar;
8. O'zRFA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmasi, № 1207/III, 124 b-150 b. varaqlar.
9. Masharipova G.K. Qozizoda Rumiyning Mahmud ibn Umar al-Chag'miniy "Mulaxxas fi-l-hay'a" astronomik va matematik asariga sharhi. - Res-ka il.am.an.mat. - Xiva, 2002, 56-57-b.
10. Rudloff G., Hochheim A. Die Astronomie des Mahmud ibn Muhammed ibn 'Omar al-Cagmini // Zeitschrift der Deutschen Morgenlandischen Gesellschaft, Bd.47, 1893. p.213-275.
11. Masharipova G.K. Mahmud ibn Muhammad al-Chag'miniyning astronomiyasi. Pedagogik ta'lim. - Toshkent, 2011, 4-soni. - 67-69-betlar.
12. Lexicon Bibliographicum et Eucyclopaedicum a Mustafa ben Abdallah. Haji Khalfa celebrato compositum. Editit G. Fluegel. - London, 1835-1858.
13. Masharipova G.K. Mahmud al-Chag'miniy ilmiy merosi. - XXI asr texnologiyalari. ISSN 2181 - 10-b.
14. Qodirov M. Mahmud CHag'miniy//Ma'naviyat yulduzlari. - Toshkent, 1999, 128-bet.
15. Brockelmann C.Trster Supplement band. - Leiden,1937, p.865;
16. Brockelmann S. (1868-1956). Geschichte der arabischen Jiteratur. Bd.I, p.624. - Leiden, 1943-1944.
17. Heinrich Suter (1848-1922). Die Mathematiker und Astronomen der Araber und ihre Werke-AGMW. 10, 1900.
18. Nallino K. Zu Giagmini's Astronomie, Zeitschr. Der Deutsch. Morgenland. Gesselschaft, Bd. 48, 1894, p/120.
19. George Sarton (1884-1956). Introduction to the histori of Science. 1-3. Baltimore, 1927-1948, 2 nd. 1950. (I; III, 699-700).
20. Henri Paul Joseph Renaud (1881-1945). Additions et corrections a Suter "Die Mathematiker und Astronomen der Araber". - ISIS. 18, 1932, 166-183-(p.173 ).
21. Masharipova G.K. Mahmud al-Chag'miniy ilmiy merosining Sharq va G'arb mamlakatlarida o'rganilishi.- O'zMU xabarlari – Toshkent, 2019 yil, 1-soni. - 96-99-bb.
22. O'rta asrning buyuk kashfiyotlari - xorazmlik matematiklarining ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissalar. Monografiya. - Toshkent: Navro'z nashriyoti, 2021. – 210 b.
23. Mursalimova G. va Rahimov A. Umumiy astronomiya kursi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: O'qituvchi, 1976, 102-b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 3 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).